

**TURK TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMADA OBRAZLI ASOSI
O‘ZGARGAN MAQOLLARNING IFODASI**

Nargiza Hamzayevna Hakimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

+998901897927

@nargiza_hakimova10gmail.com

Ilmiy rahbar: Nargiza Rasuljanovna Ismatullayeva

PhD., dotsent

Abstract. *This article analyzes the specific features of translating certain Turkish proverbs into Uzbek through changes in their figurative basis. The study examines the Uzbek equivalents of the selected Turkish proverbs and explores translation strategies such as literal translation, free translation, and cultural adaptation. It also discusses the differences between Turkish and Uzbek cultural contexts, the meanings of maqolitic expressions, and ways to convey them effectively in Uzbek, supported by practical examples. As a result, the article provides recommendations on effective methods for selecting equivalent expressions in the translation process.*

Keywords. *Turkish idioms, uzbek equivalents, translation strategies, literal translation, free translation, cultural adaptation, translation theory.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turk tilidagi ayrim maqollarning o‘zbek tiligaa obrazli asosi o‘zgartirib tarjima qilinishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada obyekt sifatida tanlangan maqollarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini aniqlash va ularni tarjima qilish strategiyalari (so‘zma-so‘z, erkin tarjima, madaniy moslashuv) ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turk va o‘zbek madaniy kontekstidagi farqlar, maqoltik ifodalarning ma‘nosi va ularni o‘zbek tilida qanday ifodalash mumkinligi amaliy misollar orqali tahlil qilinadi. Maqola natijasida tarjima jarayonida ekvivalent iboralarni tanlashning samarali usullari borasida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Turkcha maqollar, o‘zbek tilidagi ekvivalentlar, tarjima strategiyalari, so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima, madaniy moslashuv, tarjima nazariyasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются особенности перевода некоторых турецких пословиц на узбекский язык с изменением их образной основы. В исследовании рассматриваются узбекские эквиваленты выбранных турецких пословиц и анализируются стратегии перевода, такие как дословный перевод, свободный перевод и культурная адаптация. Кроме того, обсуждаются различия*

между турецким и узбекским культурными контекстами, значения идиоматических выражений и способы их адекватной передачи на узбекском языке на основе практических примеров. В результате в статье даются рекомендации по эффективным методам выбора эквивалентных выражений в процессе перевода.

Ключевые слова. Турецкие пословицы, узбекские эквиваленты, стратегии перевода, дословный перевод, свободный перевод, культурная адаптация, теория перевода.

Kirish Tarjimashunoslikda maqolalar tarjimasi masalasi dolzarblik kasb etadi. Turk tilidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni nafaqat til, balki madaniyat va kontekstni hisobga olishni ham talab qiladi. Har bir tilning o‘ziga xos frazeologik tuzilmalari va madaniy ma’nolari mavjud bo‘lib, ular so‘zma-so‘z tarjima qilinsa ma’nosi yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri tushunilishi mumkin.

Tarkibiy tuzilishi va ma’no jihatdan ajralmas birikmalar frazeologik birliklar deyiladi. Frazeologik birliklar nutqda erkin holda hosil bo‘lmaydi, ular tilga tayyor holda kirib keladi.¹

Demak frazeologik birlikni so‘zma-so‘z ajratib alohida ma’no chiqarib bo‘lmaganidek uni boshqa tildan yoki boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni oson kechmaydi, chunki bu jarayon bir nechta omillarni o‘z ichiga oladi. Bular so‘zlarning turli xil bog‘lanishi, omonimlar, sinonimlar, frazeologik birliklarning turli xil ma’noni berishi, polisemiya va boshqalardi. Bulardan tashqari, frazeologik birliklarda o‘sha xalqqa mansub bo‘lgan uslubiy bo‘yoqdorlik mavjudki, ba’zi bir boshqa tillarda u uchramasligi ham mumkin. Frazeologiyani asosini tushinishda yuqorida qayd etilganlarni esda saqlash lozim². Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola turk tilidagi uchta tanlangan maqolga e’tibor qaratadi: “Üzüm üzüme baka baka kararır,” “Azıcık aşım kaygısız başım”, va “Ateş olmayan yerden duman çıkmaz.”. Maqolada ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari aniqlanadi va tarjima jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan strategiyalar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Frazeologik birliklar tilning mustaqil ma’no kasb etgan iboralari bo‘lib, so‘zlarning birikmasi orqali yangi ma’no hosil qiladi. Ular maqollar, maqollar va atamalar shaklida namoyon bo‘ladi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa, ularning asl ma’nosi yo‘qolishi mumkin. Masalan, turkcha “Üzüm üzüme baka baka kararır” maqoli so‘zma-so‘z tarjimada “Uzum uzumga qarab qorayadi” bo‘ladi, ammo u aslida “Odamlar bir-biriga ta’sir qilib o‘zgaradi” degan ma’noni bildiradi. Ushbu iboraning o‘zbek tilidagi ekvivalenti ham bor faqat bu

uzum bilan emas, balki qovun bilan aloqador, ya'ni "qovun qovunga qarab rang oladi". Ushbu tarjima ko'rinishida ma'no saqlab qolindi faqat obrazli asos o'zgargan.

Turk tilidagi "Azıcık aşım kaygısız başım" maqoli so'zma-so'z tarjimada "biroz taom, xavfsiz bosh" deb so'zma-so'z tarjima qilinadi. Shu tarzda tarjima qilinganda iboraning har bir so'zi o'z o'rnida tarjima qilinadi, lekin maqolning asl ma'nosi to'liq ifodalanmaydi. Bu ibora moddiy kamchilikni emas, balki osoyishta, xavfsiz va tinch hayotiy holatni qadrlashni ifodalaydi.

Ushbu maqol turk madaniyatida insonning hayotiy qadriyatlarini aks ettiradi: ortiqcha tashvishlar va moliyaviy istaklardan ko'ra, kamroq bilan yashash, ammo osoyishta va xavfsiz yashash afzalroqdir. Shu sababli maqolning so'zma-so'z tarjimasi o'zbek tilida tabiiy va ma'noli ifodani yetkazmaydi.

O'zbek tilida bu maqolga mos keluvchi ekvivalent sifatida "Och qornim, tinch qulogim" ishlatiladi. Frazologizm tarjimasi davomida turk tilidagi "azıcık" ya'ni biroz so'zi o'zbek tilidagi iborada "umuman yo'q" ya'ni "och" ko'rinishida ifodalandi. Ammo ma'no jihatdan tamoman o'zgarish kuzatilmadi. tarjima jarayonida quyidagi strategiyalar qo'llanadi:

1. Erkin tarjima: iboraning ma'nosini saqlab, o'zbek tilida tushunarli shaklda ifodalash.
2. Madaniy jihatdan moslashtirish: turkcha maqoldagi hayotiy hikmatni o'zbek madaniyatiga moslab ifodalash.

Masalan, turk tilida jumla quyidagicha bo'lishi mumkin:

"Azıcık aşım kaygısız başım, önemli değil."

Ushbu jumlaning ma'nosi:

"Kamroq taomim bo'lsa ham, boshim tinch bo'lsa, muhim emas."

O'zbek tilida bu jumla ekvivalent tarzida:

"Och qornim, tinch qulogim bo'lsa, yetarli."

Shu tahlilga ko'ra, tarjimada maqolning ma'nosini saqlash, madaniy kontekstga moslash va stilistik ohangni e'tiborga olish muhimdir. Natijada "Azıcık aşım kaygısız başım" maqoli o'zbek tilida eng tabiiy va ma'noli shaklda "Och qornim, tinch qulogim" tarzida ifodalanadi.

Frazologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Chunki frazeologizmlar so'z birikmasi tarkibidagi biror so'zni yoki butun birikmani ma'lum bir obraz asosida ko'pma ma'noda qo'llash yo'li bilan hosil bo'ladi, uning ma'nosi ham shu yo'l bilan yuzaga keladi.³

Turk tilidagi "Ateş olmayan yerden duman çıkmaz" maqoli odatda, biror sabab yoki manba bo'lmasdan, natijani keltirib chiqarishning mumkin emasligini anglatadi. Ushbu maqolda sababi bo'lmagan holat yoki oqibatning yuzaga kelmasligi ta'kidlanadi. So'zma-

so‘z tarjima qilinganda “o‘t bo‘lmagan joydan tutun chiqmaydi” degan ma‘noni anglatadi, ammo maqolning asl ma‘nosi faqat so‘zma-so‘z tarjima qilganda to‘liq ochilmaydi.

O‘zbek tilida bu maqolga mos keladigan ekvivalent “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” bo‘ladi. Ushbu maqol ham xuddi shunday ma‘noni anglatadi: agar biror sabab yoki harakat bo‘lmasa, hech qanday o‘zgarish yoki natija yuzaga kelmaydi. Bu yerda ham sabab-natija munosabati ifodalanadi.

Tarjima strategiyalari:

1. Erkin tarjima: “Ateş olmayan yerden duman çıkmaz” maqolsi o‘zbek tiliga “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” tarzida erkin tarjima qilinadi. Bu erkin tarjima maqolning ma‘nosini saqlab, o‘zbek tilida tabiiy va tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

2. Madaniy jihatdan moslashtirish: O‘zbek tilidagi ekvivalent “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” iborasi madaniy jihatdan to‘liq moslashgan bo‘lib, o‘zbek xalqining tabiat bilan bog‘liq tasavvurlarini aks ettiradi. Shamol va daraxt tasvirlari o‘zbek madaniyatida keng tarqalgan bo‘lib, bu ibora an‘anaviy qadriyatlar va tabiatga nisbatan hurmatni o‘zida mujassam etadi.

Jumla ichidan misol:

“Ateş olmayan yerden duman çıkmaz, o zaman bir şeyler olmalı.”

Ma‘nosi: “o‘t bo‘lmagan joydan tutun chiqmaydi, shuning uchun biror narsa bo‘lishi kerak”.

O‘zbek tilida tarjimasi:

“Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi, demak biror ish bo‘lishi kerak”.

Bu misollar orqali “ateş olmayan yerden duman çıkmaz” va “shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” iboralari bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ikkala ibora ham sabab va natija o‘rtasidagi aloqani ifodalaydi. O‘zbek tilida ishlatiladigan “shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” iborasi tabiiy va keng qo‘llaniladigan frazeologizm bo‘lib, madaniy jihatdan to‘liq moslashgan.

Xulosa. Maqollar tarjimasi tilshunoslikda muhim va qiyin jarayonlardan biridir, chunki frazeologik birliklarning ma‘nosi ko‘pincha so‘zlarning oddiy ma‘nosidan farq qiladi. Turli tillarda bir xil obrazlar va tasavvurlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning mavjudligi ularning tarjima jarayonida yanada murakkablashtiradi. Aynan shuning uchun, maqollarni tarjima qilishda nafaqat so‘zma-so‘z tarjima, balki madaniy va kontekstual omillarni hisobga olish kerak.

Maqolada tahlil qilingan turk tilidagi maqollar, ya‘ni “Üzüm üzüme baka baka kararır”, “Azıcık aşım kaygısız başım”, va “Ateş olmayan yerden duman çıkmaz”, o‘zbek tilida mos ravishda “Qovun qovunga qarab rang olar”, “Och qornim tinch qulog‘im” va “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi” kabi ekvivalentlarga ega. Bu iboralar har bir

tilning o'ziga xos madaniy va lingvistik tasavvurlari orqali shakllangan bo'lib, ularning to'g'ri tarjimasida uchun nafaqat ma'no, balki madaniy moslashuv ham muhimdir.

Maqollar tarjimasida eng katta qiyinchiliklardan biri bu iboralarining o'zbek tilida tabiiy va tushunarli tarzda ifodalashdir. Ko'pincha, so'zma-so'z tarjima qilinganida, maqolning haqiqiy ma'nosi yo'qoladi yoki notanish bo'lib qoladi. Shu sababli, madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olish, tarjimaga mos va erkin yondashuvni tanlash zarur.

Shu bilan birga, maqollarni tarjima qilish jarayonida, madaniy moslashuv va kontekstual o'zgartirishlar yordamida so'zlar o'rtasidagi farqlarni engish mumkin. Bu jarayon maqollarni o'z tilimizda to'liq va aniq ifodalash imkonini beradi. Tarjima qilishda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, tushunchalar va obrazlarni o'zaro bir-biriga moslashtirish, jahon tillari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganishda yordam beradi.

Umuman olganda, maqollarning tarjimasida til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni anglashga yordam beradi va tarjimaning aniq va to'g'ri bo'lishi uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shaxlo M. IBORA, SO'Z BIRIKMASI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA //University Research Base. – 2024. – C. 180-185.

2. USAROVA, Dildora. "TARJIMANING FRAZEOLOGIK MUAMMOLARI." LTEACHIN LANGUAGE: 129.

3. Хатамова, Дильфуза Абдувахобовна. "TARJIMADA EKVIVALENTLIK." СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ: 14.

4. Ismatullaeva, N. R. (2020). Methods of Elimination of Lexical Gaps in Translation (on example of Chinese and Uzbek languages). Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 305-314.